

X.Sulaymonova nomidagi Respublika  
sud ekspertiza markazi direktorining  
2024-yil 24-apreldagi -um-sonli  
buyrug‘iga 1-ilova

**X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining  
Buxoro va Navoiy viloyati bo‘limlari faoliyatini kompleks tekshirish  
bo‘yicha ishchi guruhi tarkibi**

T/r	F.I.Sh	Lavozimi
<i>Ishchi guruhlari rahbari</i>		
1.	Uzakov Uchkun Xamidovich	Direktor o‘rinbosari
<i>Ishchi guruh a’zolari</i>		
2.	Kudratov Sanjar Marupovich	Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi
3.	Abdumajidov Umidjon Abdumannob o‘g‘li	Sud-avtotexnika ekspertizasi laboratoriysi yetakchi eksperti
4.	Xabibullayev Boburbek Xayrulla o‘g‘li	Sud-qurilish-texnik ekspertizasi bo‘limi eksperti
5.	Bo‘riyev Akram Formonqulovich	Sifat menejmenti bo‘limi mutaxassasi

X.Sulaymonova nomidagi Respublika  
sud ekspertiza markazi direktorining  
2024-yil 24-apreldagi -um-sonli  
buyrug‘iga 2-ilova

## **Markazning Buxoro va Navoiy viloyati bo‘limlari faoliyatini kompleks tekshirish savolnomasi**

### **I. Ish yuritish va ijro intizomi masalalari bo‘yicha**

1. Ish yuritish va ijro intizomi bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar, topshiriqlar hamda ko‘rsatmalar ijro holatini o‘rganish;
2. Ish yuritishning tashkil etilishi, hujjatlarni qabul qilish, ijrochilarga taqsimlash va yetkazish, ijrosini nazorat qilish, hujjatlarni jo‘natish va saqlash ahvoli belgilangan qoida va tartibga muvofiqligini o‘rganish;
3. Murojaatlar, topshiriqlar, ko‘rsatmalar va boshqa barcha hujjatlarning hisobi yuritilishi, ijrosi bo‘yicha nazorat olib borish amaliyotini o‘rganish;
4. Ish reja, Ilmiy kengash yig‘ilishlari qarorlari, Yo‘l xaritalari va chora-tadbirlar rejalarini nazoratga olish, ijrosini ta’minlash va belgilangan muddatlarda axborot berish ahvolini o‘rganish;
5. Ilmiy kengash yig‘ilishlari qarorlari, Yo‘l xaritalari va chora-tadbirlar rejalarini bilan xodimlarni tanishtirish amaliyotini o‘rganish;
6. Ish rejalarining har bir bandi bo‘yicha ijrosini o‘rganish;
7. Ilmiy kengash yig‘ilishlariga masalalarni kiritish, hujjatlarni tayyorlash, tashkiliy ishlar amalga oshirilishini o‘rganish;
8. Laboratoriya ustuva va kechiktirib bo‘lmaydigan masalalar, shuningdek Markaz rahbariyati tomonidan berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan tezkor yig‘ilishlar o‘tkazilganligi, bayonnomalar ketma-ketligi, bayon va qaror qismlarining muvofiqligini o‘rganish;
9. Ilmiy kengash yig‘ilishlari qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosining ta’minlanishi hamda ular ijrosiga oid hujjatlarning to‘liqligini o‘rganish;
10. Doimiy va kunlik nazoratdagi hujjatlar, topshiriqlarning tartibli yuritishini o‘rganish.

### **II. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tartibi bo‘yicha**

11. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha qonun hujjatlari va ichki hujjatlarning mavjudligini o‘rganish;
12. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini nazoratga olish, o‘z vaqtida ijrochilarga yetkazish va ijrosini ta’minlashda belgilangan muddatlarga rioya etilishining nazorat qilish amaliyotini o‘rganish;

**13.** Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining murojaatlarini ko‘rib chiqish muddatlariga rioya etilishi, takroriy murojaatlarni ko‘rib chiqish ahvolini o‘rganish;

**14.** Murojaatlarda keltirilgan vajlarning to‘liq va qonuniy ko‘rib chiqib hal etilishi, muallifga berilgan javoblarning asosliliginin tekshirish;

**15.** Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining murojaatlarni ko‘rib chiqish davomida aniqlangan qonunbuzilishlarni bartaraf etish yuzasidan ko‘rilgan choralarining ta’sirchanligini o‘rganish;

**16.** Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari va ularning ijrosiga oid ma’lumotlarning alohida jiddlarga jamlanishi, javob xatlar nusxalarining mavjudligi, murojaatlarning ko‘rib chiqish amaliyoti umumlashtirib borilishi ahvolini o‘rganish;

**17.** Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining murojaatlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning tahliliy statistik hisobotlari tayyorlanishi ahvolini o‘rganish.

### **III. Statistik hisobotlarni yuritish bo‘yicha**

**18.** Statistik hisobotlarni yuritish bo‘yicha ishlarning tashkil etilishi ahvolini o‘rganish;

**19.** Statistik shakllar mavjudligini, davrlar bo‘yicha ketma-ketlik tartibi asosida yig‘ib borilishi holatlarini o‘rganish;

**20.** Statistik hisobotlarni xodimlardan qabul qilib olish, umumlashtirish va tahlil qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar;

**21.** Markazning Tashkiliy-nazorat va tahlil bo‘limiga taqdim etilgan statistik hisobotlarning to‘g‘riligini o‘rganish.

### **IV. Qonun hujjatlari, ichki idoraviy hujjatlar va ulardan foydalanish tartibi bo‘yicha**

**22.** Amaliyotda foydalanilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, ichki idoraviy hujjatlarning mavjudligini o‘rganish;

**23.** Faoliyatida foydalanilayotgan uslubiyot va boshqa adabiyotlarning mavjudligini o‘rganish;

### **V. Huquqiy targ‘ibot sohasi bo‘yicha**

**24.** Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish yuzasidan tashkil etilgan ishlar ahvolini o‘rganish;

**25.** Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish hamda qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy bilimlarning aholi o‘rtasida targ‘ib qilinishini tashkil etish borasida amalga oshirilgan ishlar, xususan bu borada huquqiy targ‘ibotning turli shakllarda (ko‘rgazmali, joylarda manzilli va predmetli,

uyma-uy yurib) amalga oshirilishi ahvoli hamda targ‘ibot tadbirlarining sifat darajasi va natijadorligini o‘rganish;

26. Huquqiy targ‘ibot bo‘yicha taqdim etilgan statistik ma’lumotlarning asosliligi va to‘g‘riligini o‘rganish;

27. Sud ekspertizasini o‘tkazish, ashyoviy dalillar (namunalar) olish tartibi bo‘yicha sud-tergov organlari xodimlari uchun o‘tkazilgan targ‘ibot tadbirlarini o‘rganish.

## **VI. Sud ekspertlik faoliyati bo‘yicha**

28. Sud ekspertizasi sohasida ilmiy-tadqiqot, ekspertlik ishlari tashkil etilganlik holatini o‘rganish;

29. Sud ekspertizalarini o‘tkazishda protsessual qoidalarga, muddatlarga rioya etilishi, ekspert xulosalarining asosliligi, qayta ekspertizalar o‘tkazish, bajarilgan ekspertizalar soni, ijrosiz qaytarilgan ekspertiza materiallari, ekspertizalarni harakatdan to‘xtatishning asosliligini o‘rganish;

30. Ekspertizaga kelib tushgan materiallar soni va dinamikasi, ekspertizalarni o‘tkazish uchun zarur sharoitlarning mavjudligi, ekspertiza ishlari hamda taqdim etilgan materiallarni saqlash va qaytarish masalalarini o‘rganish;

31. Sud ekspertlik faoliyati yuzasidan o‘tkazilgan umumlashtirishlarning mavjudligi, natijadorligi va asoslovchi hujjatlarning mavjudligini o‘rganish;

32. Sud-tergov organlariga sud ekspertizasini o‘tkazish bilan bog‘liq berilgan maslahatlar, tushuntirishlar hamda bu haqda jurnallarda asoslovchi hujjatlarning mavjudligini o‘rganish;

33. O‘z tasdig‘ini topmagan qayta ekspertizalarning mavjudligi, bu holatni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlarni o‘rganish;

34. O‘tkazilgan sud ekspertizalarida aniqlangan holat bo‘yicha profilaktik takliflar berish amaliyotini o‘rganish;

35. Sud ekspertlik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha asoslantirilgan takliflar berilganligini o‘rganish;

36. Sud ekspertlik faoliyati bo‘yicha qabul qilingan yangi qonun va qonun osti hujjatlarining ijrosi hamda amaliyotga tatbiq etilganlik holatlarini o‘rganish;

37. Sud ekspertizasi sohasi bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganilganlik holatini tahlil qilish;

38. Sud ekspertlik faoliyati bo‘yicha malakasini oshirgan xodimlarning xorij tajribasini amaliyotga tatbiq etganlik holatini o‘rganish.

## **VII. Moliya-xo‘jalik va moddiy-texnik masalalar bo‘yicha**

39. Moliya-xo‘jalik va moddiy-texnik masalalar bo‘yicha topshiriqlar ijrosini o‘rganish;

**40.** Tovar-moddiy boyliklari va orgtexnika jihozlarining hisobotlarining yuritilishi, saqlanishi, ishlatilishini o‘rganish;

**41.** Balansda mavjud bo‘lgan asbob-uskunalar, moddiy-texnika vositalarining soni hujatlarda qayd etilgan raqamlarga muvofiqligini o‘rganish;

**42.** Pullik ekspertiza va mutaxassis fikrlari yuzasidan ko‘rsatilgan xizmatlar holatini o‘rganish.

*Izoh: Tekshirish davomida ishchi guruh a’zolari tomonidan o‘rganish predmetiga oid boshqa masalalar ham o‘rganilishi hamda zarur ma’lumotlar talab qilib olinishi mumki*